

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIK ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

SHOXNAZAROVA SHOHNOZA AVG'ONOVNA

**JAYDARI ZOTLI QO'CHQORLARNING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA
GO'SHT MAHSULDORLIGINI OSHIRISHNING JADAL
TEXNOLOGIYASI**

06.02.03–Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on agricultural
sciences**

Shoxnazarova Shohnozha Avg'onovna

Jaydari zotli qo'chqorlarning o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligini
oshirishning jadal texnologiyasi.....3

Шохназарова Шохноза Авгоновна

Интенсивная технология повышения роста, развития и мясной
продуктивности баранов породы джайдара.....21

Shokhnazarova Shokhnoza Avgonovna

Intensive technology for increasing the growth, development and meat productivity
of sheep jaidari.....39

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIK ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

SHOXNAZAROVA SHOHNOZA AVG'ONOVNA

**JAYDARI ZOTLI QO'CHQORLARNING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA
GO'SHT MAHSULDORLIGINI OSHIRISHNING JADAL
TEXNOLOGIYASI**

06.02.03–Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2023.4.(PhD)/Qx1295 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent davlat agrar universiteti (www.tdau.uz), Respublika ilmiy qishloq xo'jaligi kutubxonasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Parmanova Dilnoza Mavlanovna

qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Gaziyev Adxam

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Shayusupov Bobir Bahodirovich

qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi
vazirligi huzuridagi Veterinariya va
chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «17» 06 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy, tel: (99871) 260-48-00, faks (99871) 260-38-60, E-mail: tuag-info@edu.uz. Toshkent davlat agrar universiteti ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 552736 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2 uy, ToshDAU ARM binosi, 1-qavat, tel:(99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «30» 05 kuni tarqatildi.
(2025-yil «6» maydagi № 25 raqamli reyestr bayonnomasi)



Sh.R.Umarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, q.x.f.d., professor

Sh.A.Abdurasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
koini, v.f.d., dotsent

Q.J.Shakirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Qo'ychilik, shubhasiz, jahon chorvachiligining ajralmas qismi hisoblanadi. Dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan qo'y go'shti mahsulotining to'rt dan uch qismi Avstraliya, Angliya, Yangi Zelandiya, Ispaniya, Germaniya, Gollandiya, Fransiya, AQSh, Italiya va boshqa qo'ychiligi rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Jahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning ma'lumotlariga ko'ra «...qo'ychilik rivojlangan davlatlarda har yili umumiy yetishtirilayotgan yosh qo'zilarining 65-93 foizi go'sht mahsulotlari uchun so'yilmoqda jumladan, Amerika Qo'shma shtatlarida 93 foiz, Germaniyada 85 foiz, Angliyada 84 foiz, Bolgariyada 80 foiz va Yangi Zelandiyada 70 foizni tashkil etmoqda»¹. Hozirgi kunda qo'ylarni yaylov va yirik qo'ychilik majmualarida oziqlantirish hamda asrash sharoitlarini yaxshilash maqsadida, ularni to'la qiymatli oziqlantirish, mahsuldorlik va pushtdorlik xususiyatlarini takomillashtirish, go'sht-yog' yo'nalishidagi dumbali qo'y zotlarini nasldorlik va mahsuldorlik xususiyatlarini yanada oshirishga dunyo miqyosida dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda qo'ychilik ilm-fani rivojlangan davlatlarda dumbali qo'ylar seleksiyasini yaxshilash bilan bir qatorda, xalqaro bozor talablariga javob beradigan yosh qo'y go'shti mahsulotlari ishlab chiqarish hamda qo'y junini qayta ishlash undan gilam, trikotaj va har xil turdagi gazlamalar tayyorlashga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu asnoda, go'sht va yog' yo'nalishidagi qo'ylar seleksiyasini yanada takomillashtirish orqali yetishtiriladigan qo'y go'shti va yog' mahsulotlarini oshirish borasidagi yangi innovatsion texnologiyalarni yaratish va uni ishlab chiqarishga joriy etish borasidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda aholining go'sht va go'sht mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda maqbul oziqlantirish sharoitlarini yaxshilash orqali mavjud go'sht-yog' yo'nalishidagi dumbali qo'ylarning nasldorlik va mahsuldorlik xususiyatlarini biotexnologik usullar yordamida yaxshilash, jadal innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish borasida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «...qishloq xo'jaligini ilmiy asosda jadal rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish, shuningdek, chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 baravar ko'paytirish»²ga yo'naltirilgan vazifalar belgilangan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, go'sht-yog' yo'nalishidagi dumbali qo'y zotlarining genetik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali ularni to'la qiymatli oziqlantirish, mahsuldorligini oshirishda samarali jadal o'stirish texnologiyalaridan foydalanish, qo'y go'shti ishlab chiqarish hajmini yanada ko'paytirish hamda mazkur sohaning samaradorligini yanada oshirish borasidagi ilmiy-tadqiqotlar muhim ilmiy va

¹<http://www.fao.org>

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF 60-sonli Farmoni.

amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi PQ-5017-sonli «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha-tadbirlar to'g'risida»gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121 sonli «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarida aniq vazifalar belgilangan bo'lib, ushbu vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston hududida ko'paytirilib, boqiladigan dumbali qo'ylarining urchitish va ko'paytirish, o'sishi, rivojlanishi hamda go'sht mahsuldorligiga irsiy omillar ta'siri bilan bir qatorda saqlash va oziqlantirish omillarini o'rganish bo'yicha sohaning taniqli olimlari Y.A.Yuldashbayev, A.N.Arilov, V.F.Negovora, B.S.Bachayev, N.R.Ro'ziboyev S.Y.Yusupov, A.Gaziyev, U.T.Fazilov, E.S.Shaptakov, D.Y.Abdizoirova, Y.F.Sultanov, O.B.Fayzullayevlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilgan.

Shuningdek, xorij olimlari R.Preston, W.Eskert, H.Cohler tomonidan Bolgariya, Ruminiya, Germaniyada ixtisoslashtirilgan katta bo'rdoqichilik maydonchalari tashkil etish, ularda bir vaqtning o'zida 30-40 ming bosh qo'zi 2-3 oylikda 15-17 kg tirik vaznda bo'rdoqilash va ularning tirik vazni 30-32 kg ga yetganda juni qirqib olinib, qo'zilar go'shtga so'yilib topshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borib ijobiy natijalar olganlar.

Bugungi kunga kelib, olimlar tomonidan turli ozuqalardan foydalanib, qo'ylarning go'sht mahsuldorligini oshirish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, ushbu yo'nalishda to'la qiymatli ozuqalardan foydalanib, qo'chqorlarni jadal o'stirish texnologiyasini asoslash orqali qo'chqorlarning go'sht mahsuldorlini oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot rejalari muvofiq 2022-yil 4-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan «Jaydari zotli qo'chqorlarning o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligini oshirishning jadal texnologiyasi» mavzusi doirasida bajarilgan (2022-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi Jaydari zotli qo'chqorlarni o'sishi, rivojlanish va go'sht mahsuldorligini oshirishning jadal texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tajribadagi sovliqlarning sut mahsuldorligini aniqlash;

tajriba guruhidagi qo'chqorchalarga beriladigan ozuqaning kimyoviy tarkibini va to'yimlilikini aniqlash;

oziqlantirish va ozuqa sarfi, asrash va parvarishlash sharoitlarini o'rganish;

tajriba guruhidagi qo'chqorchalarni turli o'sish davrlarida, tug'ilganda, 21 kunlikda, 4,5-5 oylikda, 6 oylikda, 8 oylikda, 12 oylikda va 18 oylikda o'sish va rivojlanishini aniqlash;

qo'chqorlarning go'sht mahsuldorligi va sifatini aniqlash;
qo'chqorlarni jadal o'stirish texnologiyasini ishlab chiqish;
tadqiqotning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida 2022-2024-yillarda Farg'ona viloyati Quva tumanida joylashgan «Quvonchbek Zohidjon fermasi» MChJ (qo'yning jaydari zoti bo'yicha naslchilik xo'jaligi)da urchitiluvchi mahalliy jaydari zotli bo'g'oz sovliqlari va ulardan olingan qo'chqorchalar va go'sht mahsuloti tanlangan.

Tadqiqotning predmeti jaydari zotli qo'chqorlar va «Best Mega Mix» ozuqasi bilan oziqlantirilgan jaydari zotli qo'chqorlarning o'sish va rivojlanish hamda go'sht mahsuldorligini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqotlarni bajarishda N.A.Kravchenkoning (1963) «Qo'ylarning tirik vazn ko'rsatkichlarini o'rganish», tana qismlari va tana indeksleri zootexniyada umumqabul qilingan uslublardan, oziqlantirish me'yori, ozuqa tarkibi va to'yimliliği A.P.Kalashnikov va boshqalarning «Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish me'yori va ratsionlari», A.A.Veniaminov va boshqalarning «Qo'ylarning go'sht mahsuldorligi» uslubidan, GOST 7595-81 bo'yicha «Qo'ylarning go'sht sifatini aniqlash», V.M.Aleksandrovning «Go'sht va yog'ning energetik qiymatini aniqlash usuli», N.A.Ploksinskiyning (1969) «O'rtacha arifmetik qiymat (M), uning xatosi (m), o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti (C_v), ishonchlilik kriteriyalari (td) va bo'sag'alari (P)», statistik, tadqiqotning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor xo'jalik sharoitida jaydari zotli qo'chqorlarni jadal o'stirish texnologiyasi ishlab chiqilib, ushbu texnologiya asosida qo'chqorlarning tirik vazni tug'ilgandan to 18 oylik yoshigacha nazorat guruhiga nisbatan 23,4 kg yuqori bo'lganligi aniqlangan;

qo'chqorchalar onasidan ajratilib 6 oylikka qadar «Best Mega Mix» ozuqasidan foydalanib, jadal o'stirilganda so'yim oldi tirik vazni 4,4 kg, nimta vazni 2,0 kg, so'yim chiqimi 0,9% ga nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlangan;

qo'chqorchalar 6 oylikdan 12 oylikkacha «Best Mega Mix» ozuqasidan foydalanib, jadal o'stirish natijasida tajriba guruhining so'yim oldi tirik vazni 11,2 kg, nimta vazni 5,1 kg, so'yim chiqimi 1,6% ga nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlangan;

qo'chqorlarni «Best Mega Mix» ozuqasidan foydalanib, bo'rdoqilash natijasida 6 oylikda 13,18%, 12 oylikda 14,85%, 18 oylikda 14,04% yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tajribadagi sovliqlarning sut mahsuldorligi qo'zilarining tirik vazniga bo'g'liqligi o'rganilganda tirik vazn bilan sovliqlar sutdorligi o'rtasidagi yuqori bo'g'liqlik tajriba guruhidagi qo'zilarida aniqlangan va tahlil qilingan;

yangi tugʻilgan qoʻchqorlarning 18 oylik yoshigacha oʻsish va rivojlanishi, tana oʻlchamlari va shu asosida hisoblangan tana tuzilish indeksleri tahlili, ularning goʻsht-yogʻ mahsuldorlik koʻrsatkichlari aniqlangan;

mahalliy oзуqalardan tayyorlangan «Best Mega Mix» oзуqa aralashmasining kimyoviy tarkibi oʻrganilgan va shu asosida aralashmaning oзуqa birligi aniqlangan;

judal oʻstirilgan qoʻchqorlarni soʻyim koʻrsatkichlari oʻrganilganda goʻshtdorlik koeffitsiyenti 6, 12 hamda 18 oylik yosh davrida nazorat guruhiga nisbatan 0,25, 0,48 hamda 1,0 birlikka, soʻyim chiqimi boʻyicha nazorat guruhiga nisbatan 0,9, 1,6 va 2,4 foizga yuqori boʻlganligi aniqlangan.

qoʻchqorlar goʻshtining kimyoviy tarkibi oʻrganilgan, goʻsht tarkibidagi suv, oqsil, yogʻ, kul miqdorlari va goʻshtning energetik qiymati aniqlangan;

ishlab chiqilgan texnologiya asosida jaydari zotli qoʻchqorlarni goʻsht mahsuldorligini oshirish xoʻjalik sharoitida boqish bilan taqqoslanganda iqtisodiy jihatdan samarali boʻlishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy tadqiqotlarda olingan barcha koʻrsatkichlar tahlilida zamonaviy uslub va vositalardan foydalanganligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qoʻmitasining aprobatsiya komissiyasi maʼlumotnomalari olinganligi, Respublika hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi tomonidan «Best Mega Mix» oзуqasi va goʻshtning kimyoviy tarkiblarini laboratoriya sharoitida tahlil qilinganligi toʻgʻrisida berilgan bayonnomasi, tajribada olingan maʼlumotlarga kichik tanlamalar usulida statistik ishlov berilganligi tadqiqot ishining amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan maʼqullanganligi, ilmiy-tadqiqot natijalari yetakchi ilmiy nashrlarda chop qilinganligi va olingan natijalarni ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, goʻsht yetishtirishda jaydari zotli qoʻchqorlarning oʻsishi, rivojlanishi va goʻsht mahsuldorligini oshirishning judal texnologiyasini ishlab chiqilganligi hamda dumbali qoʻylarning oʻsish va rivojlanishi, goʻsht-yogʻ mahsuldorligining shakllanishi hamda nazorat soʻyim koʻrsatkichlarining rivojlanish davrlariga koʻra farqlanishlari nazariy tomondan ilmiy asoslanganligi bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, yosh hayvonlarni goʻsht va yogʻ mahsuldorligini oshirishda noanʼanaviy usulda tayyorlangan «Best Mega Mix» oзуqasi bilan oziqlantirish orqali qisqa muddatda qoʻy goʻshti yetishtirish hajmini yanada oshirish, aholiga arzon va sifatli goʻsht ishlab chiqarish va soha samaradorligini oshirish bilan bir qatorda goʻsht mahsulotlari yetishtirish miqdorini oshirganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jaydari zotli qoʻchqorlarning oʻsishi, rivojlanishi va goʻsht mahsuldorligini oshirish boʻyicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

jaydari zotli qoʻchqorlarni judal oʻstirish texnologiyasi Fargʻona viloyati Quva tumanidagi «Quvonchbek Zohidjon fermasi» MChJ da 100 bosh

qo'chqorlarda joriy etilgan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 17-martdagi № 02/23-178 sonli ma'lumotnomasi). Natijada jaydari zotli 6, 12 va 18 oylik qo'chqorlar «Best Mega Mix» mahalliy ozuqasi bilan oziqlantirilganda, odatiy xo'jalik ratsionida oziqlantirilgan nazorat guruhidagi qo'chqorlarga nisbatan 4,5 oylikdan 6 oylikkacha 45 kun jadal o'stirilib nazoratga nisbatan 1,4 kg, 4,5 oylikdan 12 oylikkacha 10,5 kg, 4,5 oylikdan 18 oylikkacha 21,5 kg ko'p qo'shimcha tirik vazn olingan. Jami daromad 214,0; 1198,0 va 2927,0 ming so'mni, olingan sof foyda 54,0; 316,0 va 804,0 ming so'mni, rentabellik darajasi esa 33,34; 35,90 va 37,84% ni tashkil etgan;

jaydari zotli qo'chqorlarni 12 oylik yoshida jadal o'stirish texnologiyasi Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi qo'ychilikka ixtisoslashgan «Ravshan» fermer xo'jaligida 120 bosh qo'chqorlarda joriy etilgan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 17-martdagi № 02/23-178 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, jaydari zotli qo'chqorlar «Best Mega Mix» mahalliy ozuqasi bilan oziqlantirilganda xo'jalik ratsionida oziqlantirilgan nazorat guruhidagi qo'chqorlarga nisbatan 10,0 kg ko'p qo'shimcha vazn olingan. Jami daromad 1186,0 ming so'mni, olingan sof foyda 303,0 ming so'mni tashkil etib, rentabellik darajasi 34,28% ni tashkil etgan olingan natijada rentabellik darajasi 34,28% ni tashkil etgan;

jaydari zotli qo'chqorlarni 12 oylikda jadal o'stirish texnologiyasi Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi qo'ychilikka ixtisoslashgan «Jasur baraka dalasi» fermer xo'jaligida jaydari zotli 130 bosh qo'chqorlarda joriy etilgan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 17-martdagi № 02/23-178 sonli ma'lumotnomasi). Natijada jaydari zotli qo'chqorlar «Best Mega Mix» mahalliy ozuqasi bilan oziqlantirilganda 12 oylik yoshida xo'jalik ratsionida oziqlantirilgan nazorat guruhidagi qo'chqorlarga nisbatan 9,8 kg yuqori vazn olingan, jami daromad 1178,0 ming so'mni, olingan sof foyda 303,0 ming so'mni tashkil etib, rentabellik darajasi 34,57% ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari Farg'ona viloyati Quva tumani «Quvonchbek Zohidjon fermasi» MChJ (qo'yning jaydari zoti bo'yicha naslchilik xo'jaligi)ning ishlab chiqarish yig'ilishlarida, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi va Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutining aprobatsiya komissiyasida (2022-2024-yillar) hamda 5 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta, shu jumladan xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida 7 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, shundan 1 tasi xorijiy nashrlarda, ilmiy maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar ishlab chiqarishga amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Adabiyotlar sharhi»** deb nomlangan birinchi bobi 3 bo'limdan iborat. Bu bobda mavzu bo'yicha respublikamiz va xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar yuzasidan ilmiy adabiyotlar tahlili yoritilgan. Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda, jaydari zotli qo'ylarning qisqacha tavsifi, qo'ylarning o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligiga ta'sir etuvchi omillar, qo'ylarning nazorat so'yimi va sifat ko'rsatkichlari va go'sht ishlab chiqarishning hozirgi holati va istiqbollari o'rganish borasidagi ko'plab mualliflarning tadqiqot natijalaridan sharhlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Tadqiqot o'tkazish joyi va uslublari»** deb nomlangan ikkinchi bobida, tadqiqot obyekti, tajribalar o'tkazilgan joyi, geografik joylashuvi, iqlimi, yer maydoni va qo'llanilgan uslublari va tadqiqot tasviri keltirilgan. Tadqiqotlarni olib borish uslubiyatlari, olingan ma'lumotlarga statistik tahlil qilish usullari bayon etilgan.

Ilmiy-tadqiqotlarning amaliy qismi 2022-2024-yillarda Farg'ona viloyati Quva tumanidagi «Quvonchbek Zohidjon fermasi» MChJ (qo'yning jaydari zoti bo'yicha naslchilik xo'jaligi) da o'tkazilgan.

Dissertatsiyaning **«Qo'ylarni oziqlantirish, o'sish va rivojlanish xususiyatlari»** nomli uchinchi bobida tajribadagi bo'g'oz sovliqlarni oziqlantirilishi, sovliqlarni tirik vazni, sovliqlar sut mahsuldorligining qo'zilarni tirik vazni bilan bog'liqligi va tug'ilgandan to 18 oylik yosh davrigacha bo'lgan qo'chqorlarning tirik vazni, eksteryer va tana tuzilish indeks ko'rsatkichlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari tahlil qilinganligi bayon etilgan.

Tadqiqotimizda nazorat va tajriba guruhidagi qo'chqorlar uchun jami ozuqa sarfi 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval ma'lumotari shuni ko'rsatadiki, qo'chqorchalarning 4,5 oyligidan to 6 oylik davrigacha har bir nazorat va tajriba guruhlarida 50 bosh iste'mol qilgan ozuqalarning tarkibidagi to'yimli moddalar miqdori tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 1258 (MDj) almashinuv energiyasi, 22,5 kg quruq modda, 1,125 kg xom protien kam, 15,075 kg kalsiy nazorat guruhiga nisbatan ko'proq, nazorat guruhiga nisbatan 3,1725 kg fosfor kamroq va nazorat guruhiga nisbatan 0,015 kg karotin ko'p iste'mol qilgan. Qo'chqorchalarda 6 oylik davrida har bir guruhdan 3 boshda nazorat so'yimi o'tkazildi. Qolgan har bir guruhdagi 47 bosh qo'chqorchalarni bo'rdoqilash uchun ratsion tuzildi. Qo'chqorchalarning 6 oyligidan to 12 oylik davrigacha iste'mol qilgan ozuqalarning tarkibidagi to'yimli moddalar miqdori tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 23518,8 (MDj) almashinuv energiyasi

ko'p, nazorat guruhiga nisbatan 253,8 kg quruq modda, 84,6 kg xom protien, 9,306 kg kalsiy, 17,9352 kg fosfor kam va nazorat guruhiga nisbatan 0,066 kg karotin ko'p iste'mol qilgan.

1-jadval

Tajribadagi qo'chqorlarning jami ozuqa sarfi, kg

Ko'rsatkichlar	Qo'chqorchalar (4,5-6 oylik)		Qo'chqorchalar (6-12 oylik)		Qo'chqorlar (12-18 oylik)	
	nazorat (n=50)	tajriba (n=50)	nazorat (n=47)	tajriba (n=47)	nazorat (n=44)	tajriba (n=44)
Ratsion tarkibi:						
Beda pichani	2700	2700	4230	4230	3960	3960
Turli o'tlar pichani	-	-	3384	3384	4752	3960
Makkajo'xori silosi	-	-	4230	4230	3960	3960
Bug'doy kepagi	562,5	-	5076	-	3960	-
Arpa doni	1125	-	3384	-	4752	-
Best Mega Mix	-	1575	-	7614	-	9504
Osh tuzi	13,5	13,5	59,22	40,185	71,28	55,44
Dinatri fosfat	56,25	56,25	-	169,2	-	237,6
Ozuqa tarkibida:						
Oziqa birligi	2902,5	2857,5	11 844	12182,4	13 068	14335,2
Almashinuv energiya, MDj	36 650,5	35 392,5	154 141,2	177660	160 776	207504
Quruq modda	3690	3667,5	14 635,8	14382	15721,2	16259,76
Xom protein	484,875	483,75	2131,92	2047,32	2257,2	2201,76
Ca	30,375	45,45	122,8392	113,5332	129,888	114,84
P	28,1025	24,93	78,8472	60,912	76,3488	79,2
Karotin	0,134	0,149	0,357	0,423	0,356	0,431

Qo'chqorlarda 12 oylik davrida har bir guruhdan 3 boshda nazorat so'yimi o'tkazilib, qolgan har bir guruhdagi 44 bosh qo'chqorlarni bo'rdoqilash uchun ratsion tuzildi. Ularni 12 oylikdan to 18 oylik davrigacha iste'mol qilgan ozuqalarning tarkibidagi to'yimli moddalar miqdori tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 46728 (MDj) almashinuv energiyasi, 538,5 kg quruq modda ko'p, 55,44 kg xom protien, 15,0 kg kalsiy kam, nazorat guruhiga nisbatan 2,85 kg fosfor va 0,075 kg karotin ko'p iste'mol qilgan.

Tadqiqotdagi qo'chqorlarning turli yosh davrlaridagi tirik vazn ko'rsatkichlarini o'rganish borasida tadqiqot ishlari olib borilib, tajribadagi qo'chqorlar tirik vaznining yosh davrlari bo'yicha o'zgarishi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, tajriba guruhidagi qo'zilar tug'ilganda o'rtacha 5,1 kg ni tashkil etib, nazorat guruhidagi qo'chqorchalarga nisbatan 0,3 kg ga ($P < 0,05$) yuqori bo'lib, 21 kunlik yoshida tajriba guruhidagi qo'chqorchalar o'rtacha 11,0 kg ni tashkil qilib, nazorat guruhidagi qo'chqorchalarga nisbatan 2,1 kg ga ($P < 0,001$) yuqori bo'lganligi namoyon bo'ldi.

Nazorat va tajriba guruhidagi qo'chqorlar tirik vaznini yosh bo'yicha o'zgarishi, kg

O'sish davrlari		Guruhlar					
		nazorat			tajriba		
		limit	M±m	Cv,%	limit	M±m	Cv,%
Tug'ilganda	50	3,6-5,9	4,8±0,10	15,4	3,8-6,0	5,1±0,10*	15,0
21 kunlikda	50	7,8-11,2	8,9±0,11	10,4	8,6-12,5	11,0±0,13***	9,0
4,5-5 oylikda	50	26,5-33,3	31,9±0,24	5,32	28,7-35,9	33,8±0,32***	6,8
6 oylikda	50	31,5-39,1	36,9±0,35	6,5	35,2-44,5	40,2±0,41***	7,1
8 oylikda	47	41,2-44,7	43,6±0,17	2,75	45,2-50,7	48,4±0,32***	4,52
12 oylikda	47	48,2-51,9	50,7±0,18	2,4	57,6-65,4	63,1±0,36***	3,9
18 oylikda	44	70,5-76,7	74,4±0,24	2,1	93,0-99,5	97,8±0,28***	1,9

Eslatma: *P<0,05; ***P<0,001

Onasidan ajratilgandan keyin qo'zilar o'sish jadalligining biroz pasayishi kuzatilib, o'rtacha tirik vazn tajriba guruhidagi qo'chqorlarda 33,8 kg bo'lib, nazorat guruhiga nisbatan 1,9 kg (P<0,001) yuqoriligi aniqlandi. Shu bilan birga 4,5-5 oylikda nazorat guruhidagi qo'zilar esa xo'jalikda mavjud oзуqalar bilan oziqlantirilib, tajriba guruhidagi qo'zilar «Best Mega Mix» qo'shilgan to'la qiymatli ratsion asosida oziqlantirishdan keyin 6 oylik yosh davrida tajriba guruhidagi qo'chqorlarning o'rtacha tirik vazni 40,2 kg ni tashkil etib, nazorat guruhidagi qo'chqorlarga nisbatan 3,3 kg ga (P<0,001) yuqori bo'lishi aniqlandi. 8 oylik yosh davrida tajriba guruhidagi qo'chqorlar tirik vazni o'rtacha 48,4 kg ni tashkil etib, nazorat guruhidagi qo'chqorlarga nisbatan 4,8 kg (P<0,001) yuqoriligi namoyon bo'ldi. 12 oylikda tajriba guruhidagi qo'chqorlarning o'rtacha tirik vazni 63,1 kg ni tashkil etib, nazorat guruhidagi qo'chqorlarga nisbatan 12,4 kg (P<0,001) yuqori bo'lishi aniqlandi.

Qo'chqorlarning 18 oylik yosh davrida o'rtacha o'sish ko'rsatkichi tahlil qilinganda, tajriba guruhidagi qo'chqorlarning o'rtacha tirik vazni 97,8 kg bo'lib, nazorat guruhidagi qo'chqorlarga nisbatan 23,4 kg ga (P<0,001) yuqori bo'lishi aniqlanildi.

Tadqiqotimizda qo'ylarning o'sish xususiyatlarini qo'shimcha tasniflash maqsadida ularning eksteryer ko'rsatkichlari tug'ilganda, 21 kunlikda, 4,5-5, 6, 12 hamda 18 oylikda o'rganildi. Olingan natijalar 3;4 va 5-jadvallarda keltirilgan.

Tana o'lchamlarining eksteryer ko'rsatkichlari bo'yicha tug'ilganda tajriba guruhidagi qo'chqorlarning yag'rin balandligi 42,5 sm ni, sag'ri balandligi 44,3 sm ni, gavdaning qiya uzunligi 38,5 sm ni, ko'krak chuqurligi 17,8 sm ni, ko'krak aylanasi 42,2 sm ni, ko'krak kengligi 11,6 sm ni, pocha aylanasi 6,9 sm ni tashkil etib, nazorat guruhidagi qo'chqorlarga nisbatan tegishli ravishda 2,0 sm (P<0,01); 2,0 sm (P<0,01); 2,1 sm (P<0,001); 1,1 sm (P<0,001); 3,3 sm (P<0,001); 1,4 sm (P<0,001); hamda 0,9 sm (P<0,001) ga yuqori bo'ldi. Qo'chqorlarning 18 oylik davrida tana o'lchamlari bo'yicha nazorat guruhida yag'rin balandligi 71,1 sm ni, sag'ri balandligi 73,5 sm ni, gavdaning qiya uzunligi 75,8 sm ni, ko'krak

3-jadval

Nazorat va tajriba guruhidagi qo'chqorchalarni tana qismlarining
eksteryer o'lchamlari, sm ($M \pm m$)

№	Ko'rsat- kichlar	Guruhlar							
		tug'ilganda				21 kunlikda			
		nazorat (n=50)	C _v ,%	tajriba (n=50)	C _v ,%	nazorat (n=50)	C _v ,%	tajriba (n=50)	C _v ,%
1	Yag'rin balandligi	40,5±0,39	6,7	42,5±0,47**	7,8	45,9±0,47	7,2	47,9±0,50**	7,30
2	Sag'ri balandligi	42,3±0,45	7,32	44,3±0,46**	7,22	47,3±0,44	6,52	49,6±0,47**	6,65
3	Gavdaning qiya uzunligi	36,4±0,30	5,8	38,5±0,32***	5,71	41,6±0,34	5,8	43,7±0,38***	6,2
4	Ko'krak chuqurligi	16,7±0,21	8,9	17,8±0,24***	9,55	20,8±0,25	8,65	21,5±0,17*	5,6
5	Ko'krak aylanasi	38,9±0,28	5,14	42,2±0,36***	5,92	45,2±0,37	5,75	47,4±0,38***	5,7
6	Ko'krak kengligi	10,2±0,17	11,7	11,6±0,17***	10,3	12,4±0,18	10,4	14,5±0,19***	8,9
7	Pocha aylanasi	6,0±0,10	12,2	6,9±0,11***	11,1	7,0±0,10	10,1	7,4±0,11**	10,4

Eslatma: **P<0,01; ***P<0,001; *P<0,05

4-jadval

Nazorat va tajriba guruhidagi qo'chqorchalarni tana qismlarining
eksteryer o'lchamlari, sm ($M \pm m$)

№	Ko'rsat- kichlar	Guruhlar							
		4,5-5 oyligida				6 oyligida			
		nazorat (n=50)	C _v ,%	tajriba (n=50)	C _v ,%	nazorat (n=50)	C _v ,%	tajriba (n=50)	C _v ,%
1	Yag'rin balandligi	53,7±0,31	4,1	54,1±0,33	4,3	54,9±0,33	4,2	56,3±0,36**	4,44
2	Sag'ri balandligi	55,8±0,32	4,12	56,2±0,34	4,27	56,4±0,35	4,25	56,9±0,30	3,7
3	Gavdaning qiya uzunligi	53,8±0,21	2,8	54,5±0,23'	2,93	55,6±0,25	3,0	57,3±0,29***	3,4
4	Ko'krak chuqurligi	24,1±0,18	5,4	24,7±0,22*	6,1	25,3±0,23	6,32	26,7±0,28***	7,11
5	Ko'krak aylanasi	63,2±0,19	2,1	63,7±0,21	2,2	63,4±0,19	2,0	63,9±0,21	2,3
6	Ko'krak kengligi	15,9±0,18	8,2	16,6±0,19**	7,83	16,8±0,20	7,73	18,7±0,19***	6,95
7	Pocha aylanasi	7,6±0,05	4,4	7,8±0,05***	4,35	7,7±0,05	4,41	7,9±0,06**	5,1

Eslatma: *P<0,05; **P<0,01; ***P<0,001

**Nazorat va tajriba guruhidagi qo'chqorlarni tana qismlarining
eksteryer o'lchamlari, sm (M±m)**

№	Ko'rsatkichlar	Guruhlar							
		12 oyligida				18 oyligida			
		nazorat (n=47)	Cv,%	tajriba (n=47)	Cv,%	nazorat (n=44)	Cv, %	tajriba (n=44)	Cv,%
1	Yag'rin balandligi	58,9±0,34	4,0	61,8±0,41***	4,53	71,1±0,38	3,51	73,9±0,35***	3,11
2	Sag'ri balandligi	60,8±0,33	3,8	62,1±0,30**	3,4	73,5±0,27	2,44	74,3±0,30*	2,7
3	Gavdaning qiya uzunligi	63,7±0,26	2,82	65,2±0,29***	3,1	75,8±0,25	2,24	77,9±0,24***	2,0
4	Ko'krak chuqurligi	30,4±0,24	5,3	31,9±0,29***	6,3	34,6±0,26	4,91	35,8±0,27**	5,0
5	Ko'krak aylanasi	68,4±0,19	1,9	68,8±0,21	2,0	90,6±0,17	1,21	93,9±0,21***	1,5
6	Ko'krak kengligi	21,8±0,20	6,42	22,9±0,13***	3,84	23,8±0,29	8,0	25,0±0,13***	3,4
7	Pocha aylanasi	8,0±0,05	4,4	8,2±0,05***	4,4	8,9±0,05	3,82	9,2±0,05***	3,5

Eslatma: *P<0,05; **P<0,01; ***P<0,001

chuqurligi 34,6 sm ni, ko'krak aylanasi 90,6 sm ni, ko'krak kengligi 23,8 sm ni, pocha aylanasi 8,9 sm ni tashkil etib, tajriba guruhidagi qo'chqorlarning yag'rin balandligi 73,9 sm ni, sag'ri balandligi 74,3 sm ni, gavdaning qiya uzunligi 77,9 sm ni, ko'krak chuqurligi 35,8 sm ni, ko'krak aylanasi 93,9 sm ni, ko'krak kengligi 25,0 sm ni, pocha aylanasi 9,2 sm ni tashkil etdi va tajriba guruhidagi qo'chqorlar ko'rsatkichlari nazorat guruhidagi qo'chqorlardan 2,8 sm (P<0,001); 0,8 sm (P<0,05); 2,1 sm (P<0,001); 1,2 sm (P<0,01); 3,3 sm (P<0,001); 1,2 sm (P<0,001) va 0,3 sm (P<0,001) sm yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Dissertatsiyaning «Tajribadagi qo'chqorlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari» deb nomlangan to'rtinchi bobida tajribadagi qo'chqorlarning go'sht-yog' mahsuldorligi va nazorat so'yim natijalari, go'shtning morfologik va kimyoviy tarkibi, qo'chqorlarning jun mahsuldorligi keltirilgan.

Tadqiqotimizda qo'chqorlarning go'sht-yog' mahsuldorligi 6-jadvalda keltirilgan.

Jaydari zotiga mansub 6 oylik nazorat guruhidagi qo'chqorchalarning so'yim oldi vazni 36,9 kg ni, tajriba guruhidagi qo'chqorchalarning so'yim oldi vazni 40,2 kg ni tashkil etib, tajriba guruhi nazorat guruhidagi qo'chqorchalarni 3,3 kg (P<0,001) ortda qoldirdi.

Nimta vazni bo'yicha farq 2,0 kg (P<0,001) ni tashkil etdi. Qo'chqorlarning 12 oyligida eng yuqori so'yimoldi tirik vazn ko'rsatkichlari tajriba guruhidagi qo'chqorlarda kuzatilgan bo'lib, 57,4 kg ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich

bo'yicha nazorat guruhidagi qo'chqorlarni 11,2 kg ga ($P<0,001$) ortda qoldirgani aniqlanib, nimta vazni bo'yicha farq 5,1 kg ($P<0,001$) ni tashkil etdi.

6-jadval

Jaydari zotiga mansub nazorat va tajriba guruhidagi qo'chqorlarning go'sht-yog' mahsuldorligi, (n=3 bosh)

Guruhlar	So'yim oldi tirik vazni, kg	Nimta vazni, kg	Tirik vazni-ga nisbatan %	Ichki yog'i, kg	Tirik vazni-ga nisbatan %	Dumba yog'i, kg	Tirik vazni-ga nisbatan %	So'yim	
	M±m	M±m		M±m		M±m		vazni, kg	chigimi, %
6 oylik davrida									
Nazorat	36,9±0,27	15,2±0,15	40,9	0,5±0,06	1,5	1,7±0,1	4,7	17,4±0,1	46,6
Tajriba	40,2±0,25***	17,2±0,12***	41,3	0,5±0,06	1,3	2,1±0,1**	5,0	19,8±0,1***	47,5
12 oylik davrida									
Nazorat	46,2±0,21	19,9±0,1	43,0	1,4±0,06	3,0	2,7±0,1	6,0	24,0±0,21	51,9
Tajriba	57,4±0,23***	25,0±0,15***	43,6	1,7±0,1**	3,1	4,0±0,1***	7,0	30,7±0,15***	53,5
18 oylikda davrida									
Nazorat	72,9±0,21	31,5±0,15	43,3	2,3±0,11	3,2	5,8±0,1	8,0	39,5±0,26	54,2
Tajriba	96,3±0,21***	43,0±0,1***	44,7	3,3±0,15***	3,4	7,8±0,15***	8,1	54,5±0,27***	56,6

Eslatma: ** $P<0,01$; *** $P<0,001$

Qo'chqorlar 18 oylik davrida so'yilganda eng yuqori so'yim oldi tirik vazn ko'rsatkichlari tajriba guruhidagi qo'chqorlarda kuzatilgan bo'lib, 96,3 kg ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha nazorat guruhidagi qo'chqorlarni 23,4 kg ga ($P<0,001$) ortda qoldirgani aniqlanib, nimta vazni bo'yicha farq 11,5 kg ($P<0,001$) ni tashkil etdi.

Qo'chqorlar nimtasining morfologik tarkibini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Jaydari zotiga mansub nazorat va tajriba guruhidagi qo'chqorlar nimtasining morfologik tarkibi, (n=3 bosh)

Guruhlar	Nimta vazni		Lahm go'sht vazni		Suyaklar vazni		Paylar vazni		Go'sht-dorlik koeffitsiyenti
	kg	%	kg	%	Kg	%	kg	%	
	M±m		M±m		M±m		M±m		
6 oylik davrida									
Nazorat	15,2±0,15	40,9	11,0±0,15	72,5	3,4±0,1	22,5	0,28±0,02	1,9	3,24
Tajriba	17,2±0,12***	41,3	12,9±0,21***	74,9	3,7±0,15	21,4	0,36±0,02**	2,1	3,49
12 oylik davrida									
Nazorat	19,9±0,1	43,0	15,1±0,15	76,0	4,2±0,1	21,0	0,54±0,02	2,7	3,60
Tajriba	25,0±0,15***	43,6	19,6±0,15***	78,5	4,8±0,1***	19,2	0,72±0,02***	2,9	4,08
18 oylik davrida									
Nazorat	31,5±0,15	43,3	26,0±0,21	82,7	4,5±0,15	14,3	3,0±0,15	0,94	5,7
Tajriba	43,0±0,1***	44,7	36,2±0,15***	84,2	5,4±0,21***	12,5	3,3±0,15	1,41	6,7

Eslatma: ** $P<0,01$; *** $P<0,001$

Qo'chqorchalar nimta vaznining yoshi va semizlik darajasi ortib borgan sari kattalashib bordi, shu bilan birga 6 oylik yosh davrida tajriba guruhidagi qo'chqorchalar nimta vazni nazorat guruhidagi qo'chqorchalarnikidan 2,0 kg ($P<0,001$); 12 oylik yosh davrida tajriba guruhidagi qo'chqorlar nimta vazni nazorat guruhiga nisbatan 5,1 kg ($P<0,001$); 18 oylikda tajriba guruhidagi qo'chqorlarning nimta vazni bo'yicha nazorat guruhidan 11,5 kg ($P<0,001$) yuqori bo'lgani kuzatildi. Shu holat nimtadagi lahm go'sht miqdorida ham kuzatildi. Muskul to'qimalarining miqdori tajriba guruhidagi qo'chqorlarda nazorat guruhidagi qo'chqorlarnikiga nisbatan 6 oylikda 1,9 ($P<0,001$), 12 oylikda 4,5 ($P<0,001$) va 18 oylikda 10,2 km ga ($P<0,001$) yuqori bo'lgani aniqlandi.

Dissertatsiyaning «Jaydari zotli qo'chqorlarning o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligini oshirishning ilmiy asoslangan jadal texnologiyasi» deb nomlangan beshinchi bobida Jaydari zotli yosh qo'chqorchalarni o'sish va rivojlanish xususiyatlarini va bo'rdoqilash jarayonini jadallashtirishning yangi texnologiyasi, qo'chqorlarni saqlash va asrash texnologiyasi hamda tadqiqotning iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

Qo'ychilikda mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirishda oziqlantirish omili bilan bir qatorda saqlash, parvarishlash va asrash sharoitlarini talab darajasida tashkil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qo'chqorlar saqlanadigan binoni yorug'lik bilan yetarlicha ta'minlanganligi muhim hisoblanadi. Shuningdek, bino ichida havo almashinishi va zaharli gazlarni (ammiak) to'planib qolishini oldini olishga alohida e'tibor berish zarur. Qo'yxonadagi go'nglarni vaqtida chiqarib tashlash va qo'chqorlar tagini quruq bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tajribadagi qo'chqorlar quyidagicha asrash va parvarishlash texnologiyasi asosida saqlandi.

8-jadval

Nazorat va tajriba guruhidagi qo'chqorlarni saqlash va asrash sharoiti

Saqlash sharoiti	Asrash va parvarishlash sharoiti
<p>Jami 100 bosh qo'chqorlar bo'lib, har bir kichik qo'ralarda 5 boshdan saqlandi.</p> <p>Shunda, 1 bosh qo'chqorni saqlash uchun ajratilgan joy:</p> <p>-4,5-5 oylikdan-12 oylik yoshigacha bo'lgan davrda-0,7-0,8 m²;</p> <p>-12 oylikdan-18 oylik yoshigacha bo'lgan davrda-3-4 m² joy ajratildi.</p>	<p>Qo'chqorlar atrofi temir panjaralar bilan o'ralgan har bir qo'raning poli taxta-yog'ochdan panjarasimon bo'lib, kanalizatsiya tizimi o'rnatilgan. 4,12 metr uzunlikdagi 3 ta ozuqa oxuri suv idishlari alohida joylashtirildi.</p>

Tajribadagi qo'chqorlarni sifatli ozuqalar bilan oziqlantirish ularni tirik vaznini oshirishini va mahsulot sifatini yaxshilashni ta'minlaydi.

Qo'chqorlar yoshlik davridan boshlab sifatli beda pichani, tabiiy pichan va kuchli ozuqalar bilan oziqlantirib borildi. Nazorat guruhidagilar xo'jalikda qabul

qilingan ratsion asosida, tajribadagi tengqurlari esa to'la qiymatli ratsion asosida oziqlantirildi.

Sug'orish yozda uch mahal, qishda bir mahal tashkil qilindi. Qo'chqorlarni oziqlantirishda mog'orlagan, muzlagan, chirigan va sifatii past ozuqalar bilan oziqlantirmaslik choralari ko'rildi. Chunki bunday sifatsiz ozuqalar ularda oshqozon ichak kasalliklarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu holatda esa mahsuldorlik keskin kamayishiga olib keladi.

Qo'yxona binosi ichida qish faslida havo harorati 5^oS va nisbiy namlik 75-80 % dan oshmasligi ta'minlandi.

Qo'chqorlarni oziqlantirish, saqlash, parvarishlash va asrash sharoitlari belgilangan kun tartibiga rioya qilingan holda amalga oshirildi.

Qo'chqorlar juni yiliga 2 marotaba, ya'ni bahor va kuz faslida qirqiladi. Qo'chqorlarni junini qirqish alohida binoda, ayvon tagida o'tkazildi. Qo'chqorlarni qirqishdan oldin cho'miltirish kunning issiq paytida amalga oshirildi. Qirqish paytida bir bosh qo'chqorlarni qirqishga 22-25 daqiqa vaqt sarflandi. Jun qirqim joyini yorug', toza, zararsizlantiruvchi vositalar bilan ishlov berilganligiga alohida e'ibor berildi.

Tadqiqot davomida yosh erkak qo'zilarni o'sish va rivojlanish xususiyatlarini va bo'rdoqilash jarayonini jadallashtirish maqsadida yangi texnologiya ishlab chiqildi.


Ishlab chiqilgan texnologiya asosida qo'chqorlarni bo'rdoqiga boqish maqsadida har bir guruhda 50 boshdan iborat 2 ta: nazorat va tajriba guruhlari shakllantirildi va tajriba guruhidagi qo'chqorchalar 4,5 oylik yoshidan boshlab 18 oylikkacha yangi texnologiya asosida oziqlantirib borildi.

Yangi texnologiyani qo'llanishi hisobidan nazorat guruhidagi jaydari zotga mansub qo'chqorlarga qaraganda tajriba guruhidagi tengdoshlarining nisbiy o'sish ko'rsatkichlari tadqiqot natijalari bo'yicha isbotlandi. Jumladan, tajriba guruhidagi qo'chqorlarning nisbiy o'sish ko'rsatkichlari 6 oylik yoshida 118,9 % ni, 12 oylikda 130,4 % ni va 18 oylikda esa 155,0 % ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich nazorat guruhidagi tengqurlariga nisbatan tegishlicha: 3,2; 14,1 va 8,3 % ga yuqori natijalarga erishdilar.

Tadqiqot davomida tajriba guruhlariidagi qo'chqorlarning so'yim natijalari 6, 12 va 18 oylik yosh davrlarida ham nazorat guruhidagi tengdoshlariga nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turdi.

Tajriba guruhidagi qo'chqorlarning bo'rdoqilash oxiridagi so'yim natijalari quyidagicha bo'ldi: go'sht nimtasi vazni 43,0 kg ni, lahm go'sht vazni 36,2 kg ni va so'yim chiqimi esa 56,6 % ni tashkil qildi. Bu olingan natijalar nazorat guruhidagi qo'chqorlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda tegishlicha: 11,5 kg ga; 10,2 kg ga va 2,4 % ga yuqori bo'ldi.

Bo'rdoqilash oxirida tajriba guruhidagi qo'chqorlardan olingan jami 2927,0 ming so'mni tashkil qildi, bu esa nazorat guruhidagi tengqurlariga qaraganda 1065,23 ming so'mga ko'p bo'ldi. Natijada iqtisodiy samaradorlik barcha yosh davrlari bo'yicha tajriba guruhidagi qo'chqorlarda yuqori bo'lib, yakuniy davrda samaradorlik darajasi 37,8 % ni tashkil qildi.



1-rasm. Jaydari zotiga mansub qo'chqorlarning o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligini oshirishning ilmiy asoslangan jadval texnologiyasi moduli

Jaydari zotiga mansub qo'chqorlarni bo'rdoqilashda «Best Mega Mix» to'la qiymatli ozuqa aralashmasidan oziqlantirishda foydalanib, yangi ishlab chiqilgan texnologiya asosida oziqlantirish sharoitlarini tashkil qilish iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi tadqiqot natijalari bilan isbotlandi.

XULOSA

Jaydari zotli qo'ylarning o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. Sovliqlarning 21 kunlik sut mahsuldorligi tajriba guruhida yuqori bo'lib, nazorat guruhidagi qo'zilarga nisbatan mutanosib ravishda 9,0 kg yuqori sutdorlikka ega bo'lgan. Shu bilan bir qatorda qo'zilarning 21 kunlik yoshidagi tirik vazni bilan sovliqlar laktatsiyasining 21 kunlik davridagi sut mahsuldorligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish qo'zilar tirik vaznining korrelyativ bog'liqlikda ekanligini ko'rsatgan. Tirik vazn bilan sovliqlar sutdorligi o'rtasidagi eng yuqori bog'liqlik tajriba guruhidagi qo'zilarda ($r=0,89$) kuzatilib, bu ko'rsatkich nazorat guruhi bo'yicha ($r=0,78$) ni tashkil etgan.

2. Barcha o'rganilgan yosh davrlarida tajriba guruhidagi qo'chqorlarning tirik vazni nazorat guruhidagi qo'chqorlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan. Qo'chqorlarning tug'ilgandan to 18 oylik yosh davriga qadar tajriba guruhidagi qo'chqorlarni «Best Mega Mix» to'la qiymatli ratsion asosida oziqlantirish natijasida ularning tirik vazni 97,8 kg ni tashkil etib, nazorat guruhidagi qo'chqorlarga nisbatan 23,4 kg yuqori bo'lgan.

3. Qo'chqorlarning 18 oylik davrida tana o'lchamlari bo'yicha tajriba guruhidagi qo'chqorlar nazorat guruhidagi qo'chqorlardan 2,8 sm; 0,8 sm; 2,1 sm; 1,2 sm; 3,3 sm; 1,2 sm va 0,3 sm yuqori bo'lganligi kuzatildi. Qo'chqorlar 18 oylik davrida ham deyarli barcha tana qismlarining o'lchamlari bo'yicha nazorat guruhidagi qo'chqorlardan ustunlik qilganligi aniqlangan.

4. Qo'chqorlarni onasidan ajratib, 4,5-5 oyligidan to 18 oyligigacha xo'jalikdagi mavjud ozuqa va «Best Mega Mix» ozuqasidan foydalanib, bo'rdoqilash natijasida nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhidagi qo'chqorlarning tirik vazn va go'sht mahsuldorligi yuqori bo'lishi kuzatilgan.

5. Barcha yosh davrlaridagi qo'chqorlarda go'sht-yog' mahsuldorligi har-xil bo'lib, eng yuqori go'sht-yog' mahsuldorlik ko'rsatkichlari tajriba guruhidagi qo'chqorlarda kuzatildi. Qo'chqorlar nimtasining vazni yosh o'tgan sari va semizlik darajasi oshishi bilan ortib borgan. Go'shtdorlik koeffitsiyenti bo'yicha 6 oylik yosh davrida nazorat guruhidagi qo'chqorlarda 3,24; 12 yosh davrida 3,60 va 18 oylikda 5,7 ni, ushbu ko'rsatkichlar tajriba guruhidagi qo'chqorlarda 6 oylik yosh davrida 3,49; 12 oylik yosh davrida 4,08 hamda 18 oylik yosh davrida esa o'z navbatida 6,7 ni tashkil etgan. Ichki organlari va ovqat hazm qilish a'zolarining rivojlanishi tajriba guruhida ustunlik qilganligi kuzatilib, ularning rivojlanishiga oziqlantirish darajasi ta'sir qilishini ko'rsatdi.

6. Barcha yosh davrlarida qo'chqorlar go'shtning kimyoviy tarkibi tahlili bo'yicha, 6 oylik qo'chqorchalar go'shtining energetik qiymati nazorat guruhida 1589,2, tajriba guruhida 1647,7 ni, 12 oylikida nazorat guruhida 1729,5, tajriba guruhida 1826 va 18 oylikida esa nazorat guruhida 2120,7, tajriba guruhida 2168,5 kkal ni tashkil etgan. Qo'chqorlar go'shtining sifati bo'yicha 12 oylik qo'chqorlar 6 oylik va 18 oylik qo'chqorlarga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlandi.

7. Barcha qirqim muddatlarida tajriba guruhidagi qo'chqorlarning jun mahsuldorligi bo'yicha nazorat guruhidagi qo'chqorlardan kuzgi qirqimda 39,8 gr ga, bahorgi qirqimda 200,1 gr ga va yana kuzgi qirqimda esa 90,1 gr ga ustunlik qilgan va kuzgi jun miqdori bahorgi jun miqoriga nisbatan kamligi kuzatildi.

8. Jaydari zotiga mansub nazorat va tajriba guruhidagi qo'chqorlar bir xil saqlash, asrash va parvarishlash sharoitlarida saqlandi. Ularni o'sish, rivojlanish va go'sht mahsuldorligini oshirishning jadal texnologiyasi iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi tajribalarda isbotlandi.

9. Bir bosh tajriba guruhidagi qo'chqorni sotishdan olingan daromad 6 oylikda 214,02 ming so'mni tashkil etib, nazorat guruhiga nisbatan 49,99 ming so'mga, 12 oylikda 452,16 ming so'mga va 18 oylikda 1065,67 ming so'mga yuqori bo'lgan. Sof foyda tajriba guruhida 6 oylikda 53,52 ming so'mni tashkil etib, nazorat guruhiga nisbatan 25,99 ming so'mga, 12 oylikda 186,77 ming so'mga va 18 oylikda 445,77 ming so'mga ustunlik qilgan. Iqtisodiy samaradorlik darajasi tajriba guruhidagi qo'chqorlar bo'yicha mos ravishda 33,34; 35,90; 37,84% ni tashkil etib, nazorat guruhidagi qo'chqorlar ko'rsatkichiga nisbatan mos tarzda 13,18; 14,85; 14,04 foizga yuqori bo'lganligi aniqlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
ЖИВОТНОВОДСТВА И ПТИЦЕВОДСТВА**

ШОХНАЗАРОВА ШОХНОЗА АВГОНОВНА

**ИНТЕНСИВНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ РОСТА, РАЗВИТИЯ
И МЯСНОЙ ПРОДУКТИВНОСТИ БАРАНОВ ПОРОДЫ ДЖАЙДАРА**

06.02.03 – Частная зоогехния. Технология производства продуктов животноводства

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

продуктивности, дальнейшего увеличения объемов производства баранины и повышения эффективности этой отрасли имеют важное научное и практическое значение.

В постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-5017 «О дополнительных мерах по дальнейшей государственной поддержке отраслей животноводства» от 3 марта 2021 года и ПП-121 «О мерах по дальнейшему развитию животноводства и укреплению кормовой базы» от 8 февраля 2022 года, а также в соответствующих данной деятельности нормативно-правовых документах определены задачи и данная диссертационная работа служит в определенной степени реализации поставленных задач.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий в республике. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

Степень изученности проблемы. Научно-исследовательские работы о влиянии генетических факторов на размножение и воспроизводство, рост, развитие и мясную продуктивность курдючных овец, разводимых и выращиваемых в Узбекистане проводили видные ученые в этой области, такие как Ю.А. Юлдашбаев, А.Н. Арилов, В.Ф. Неговора, Б.С. Бачаев, Н.Р. Рузибоев, С.Ю. Юсупов, А.Газиев, У.Т. Фазилов, Э.С. Шаптаков, Д.Ю. Абдизоирова, Ю.Ф. Султанов, О.Б. Файзуллаев и другие.

Также зарубежные ученые Р. Престон, В. Эскерт, Х. Колер проводили исследования по созданию специализированных крупных откормочных площадок в Болгарии, Румынии, Германии, где одновременно выращивалось 30-40 тыс. ягнят в возрасте 2-3 месяцев с живой массой 15-17 кг, а при достижении ими живой массы 30-32 кг производилась стрижка шерсти и забой ягнят на мясо, и были получены положительные результаты.

